

№385, 8-oktyabr, 2021 y.

COVID-19 ga qarshi vaksinalarning
ishlanmalari bo'yicha

DAYJEST

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi











Toshkent-2021

Jahonda pandemiya bilan bog'liq vaziyat

2021 y. 7-oktyabr holatiga ko'ra

Umumiy zararlanganlar soni	-	237 327 005	(+ 455 891)
Sog'ayganlar soni	-	214 455 242	(+ 504 529)
Vafot etganlar soni	-	4 844 480	(+ 8 255)

Mamlakatlar bo'yicha bemorlar soni

	AQSh	-	44 932 379	(+ 107 987)
	Hindiston	-	33 914 012	(+ 21 010)
	Braziliya	-	21 517 514	(+ 18 440)
	Buyuk Britaniya	-	8 046 390	(+ 40 711)
	Rossiya	-	7 690 110	(+ 27 550)
	Turkiya	-	7 327 317	(+ 30 438)
	Fransiya	-	7 043 316	(+ 4 615)
	Eron	-	5 674 083	(+ 11 625)
	Argentina	-	5 263 219	(+ 1 284)
	O'zbekiston	-	176 964	(+ 487)

Manba: <https://www.worldometers.info/coronavirus/>



O'zbekistonda COVID-19 qarshi vaksinatsiya bo'yicha hisobot

2021 y. 6-oktyabr holatiga ko'ra

Hududlar	Jami emlanganlar soni	Bir kunda emlanganlar soni
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 108 984	8 763
Andijon viloyati	2 320 912	16 155
Buxoro viloyati	1 242 442	18 644
Jizzax viloyati	952 080	7 497
Qashqadaryo viloyati	1 615 381	12 780
Navoiy viloyati	963 866	7 574
Namangan viloyati	2 278 741	20 510
Samarqand viloyati	2 105 251	14 398
Surxondaryo viloyati	1 851 408	41 784
Sirdaryo viloyati	553 833	3 718
Toshkent viloyati	1 855 191	23 543
Farg'ona viloyati	2 361 038	17 436
Xorazm viloyati	1 301 152	21 136
Toshkent sh.	1 235 301	9 738
Jami	21 745 580	223 676

Manba: SSV matbuot kotibi // <https://t.me/ssvmatbuotkotibi>



Indoneziyada ZF-UZ-VAC2001 vaksinasidan favqulodda foydalanishga ruxsat berildi

Indoneziya Oziq-ovqat mahsulotlari va dori preparatlari nazorati agentligi (BPOM) Xitoy-O'zbekiston hamkorligida ishlab chiqarilgan ZF-UZ-VAC2001 (xalqaro nomi Zifivax) vaksinasidan favqulodda foydalanishga ruxsat berdi. Bu haqda BPOM rahbari Penni K. Lukito shu munosabat bilan tashkil etilgan press-konferensiyada ma'lum qildi.



Penni K. Lukito mazkur vaksinaning I, II va III faza tadqiqotlari uning nojo'ya ta'sirlari kamligini ko'rsatganini hamda vaksinaning 3-dozasidan keyin 7 kun o'tgach samarasi 81,71% ni tashkil etganini qayd etdi.



ZF-UZ-VAC2001 vaksinasining III faza sinovlari Indoneziyaning Bandung shahrida o'tkazilgan bo'lib, unda jami 4000 nafar ko'ngilli ishtirok etgan. Jami sinovlarda butun dunyodan 28 ming nafar ko'ngillilar qatnashganlar. Eslatib o'tamiz, Toshkent viloyatida sentyabr oyi oxirida ZF-UZ-VAC2001 O'zbekiston-Xitoy vaksinasining birinchi partiyasi ishlab

chiqarilgan.

ZF-UZ-VAC2001 vaksinasini ishlab chiqishda Novavax, EpiVacCorona va boshqalar kabi boshqa rekombinat vaktsinalarini yaratish texnologiyasiga o'xshash texnologiya qo'llanildi.

Vaksina rekombinatli koronavirus oqsilini yaratish orqali olinadi. Emlangan odamning tanasida bu oqsilning paydo bo'lishiga javoban immun tizimi virusni zararsizlantirish uchun

antitanalarni ishlab chiqaradi [4].



O'zbekistonda 87 mingdan ortiq bola Pfizer vaksinasi bilan emlandi

O'zbekistonda 5 oktyabr holatiga ko'ra, 12 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan 87 710 nafar bola Pfizer preparati bilan emlandi, deya xabar berdi mamlakat sog'liqni saqlash vazirligi matbuot xizmati [5, 6].

Hozirgi vaqtda mamlakatda ommaviy emlash 3138 emlash punktlarida amalga oshirilmoqda. Emlash 18828 faol brigadalari tomonidan amalga oshiriladi.



Eslatib o'tamiz, bosh davlat sanitariya shifokorining qaroriga ko'ra, 28 sentyabrdan 12 yoshdan katta bo'lgan bolalar ota-onalar va vasiylarning roziligi bilan Pfizer bilan emlashga ruxsat berildi. Vaktsinani tibbiy ko'rikdan o'tgandan keyin olish mumkin.

Avvalroq, 13 sentabr kuni O'zbekistonga 1,2 million doza Pfizer / BioNTech vaktsinasi yetkazilgani xabar qilingan edi. 5 -oktabr holatiga ko'ra, ushbu preparatning 465,010 dozasi ishlatilgan [7].

BMT va JSST COVID-19ga qarshi global emlash strategiyasini taqdim etdi

7-oktyabr kuni BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) rahbari Tedros Adhan Gebreyesus COVID-19ga qarshi aholini global emlash strategiyasini taqdim etdi. Uning maqsadi yil oxiriga qadar barcha mamlakatlardagi odamlarning 40 foizini va kelgusi yilning o'rtalariga qadar 70 foizni qamrab olishdir.



Ushbu rejani amalga oshirish uchun 8 milliard AQSH dollari talab qilinadi [8].

Guterrish va Gebreyesus rivojlangan mamlakatlarga kambag'al mamlakatlar bilan vakcina dozalarini bo'lishishda va ishlab chiqarishni kengaytirishga chaqirishdi.

Ularning fikriga ko'ra, faqatgina bunday yondashuv, pandemiyani to'xtatadi va virusning keyingi mutatsiyasini oldini oladi.

“Vaksinalar sababli bo'lgan tengsizliklar COVID-19 pandemiyasini kuchaytiradi. Bu tengsizlik yangi virus variantlari paydo bo'lishiga va butun dunyo bo'ylab ularning tarqalishiga olib keladi, millionlab odamlarning o'limiga va trillionlab dollar yo'qotilishiga olib keladigan keyingi iqtisodiy inqirozga aylanadi”, dedi Guterrish.

U bir necha bor global emlash strategiyasini qabul qilishga chaqirdi. Ushbu rejani amalga oshirish bo'yicha favqulodda vaziyatlar maqsadli guruhiga vakcina ishlab chiqaruvchi mamlakatlar, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, COVAX dasturi va farmatsevtika kompaniyalari bilan ishlovchi xalqaro moliya institutlari vakillari kiradi. Ularning vazifasi yetarli miqdorda vakcina dozalarini ishlab chiqarish va preparatlarni adolatli tarzda taqsimlanishini ta'minlashdir.

Yangi rejaga ko'ra, vakcina ishlab chiqarishni kamida ikki barobarga oshirish va COVAX orqali adolatli taqsimlanishini ta'minlash lozim. Emlash rejasi Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan. U pandemiya rivojlanishining trayektoriyasini, vaksinalarning samaradorligini, ularni sotib olish va yetkazib berish xarajatlarini, shuningdek, talab va taklifni tahlil qilishni ilmiy tahlil qilishga asoslangan [9].

JSST ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning 56 mamlakati sentyabr oyining oxirigacha aholisini 10%gacha emlashni ta'minlay olmagan. Ularning aksariyati Afrika va yaqin Sharq mamlakatlaridir.



Yevropa Ittifoqining katta yoshdagi aholining 75 foizdan ortigʻi koronavirusga qarshi toʻliq emlandi

Yevropa Ittifoqining katta yoshdagi aholining toʻrt dan uch qismi koronavirusga qarshi vaksinaning toʻliq kursini tugatdi. Bu haqda Yevropa komissiyasi matbuot xizmati xabar berdi [10].

“Hozirda Yevropa Ittifoqining katta yoshdagi aholisining 75% dan koʻprogʻi COVID-19 ga qarshi toʻliq emlangan”, - deyiladi Yevropa Komissiyasining Twitterdagi rasmiy sahifasida.



Yevropa komissiyasi taʼkidlaganidek, koronavirusga qarshi vaktsina infeksiyadan va kasalxonaga yotqizilishdan himoya qiladi.

Oldinroq maʼlum boʻlishicha, Yevropa dori vositalari agentligi (YEMA) olti yoshdan boshlab bolalarga koronavirusga qarshi vaktsina toʻgʻrisida xulosani noyabrga qadar beradi [11].

Rossiyaning koronavirus va grippga qarshi gibridd vaksinasining klinik sinovlari 2022-yilda boshlanadi

Rossiyada gripp va koronavirusga qarshi yagona vakcina uchun texnologik platforma yaratildi. Uning klinik sinovlari 2022-yil oxirida boshlanadi. Bu haqda N.F. Gamaleya Markaz rahbari Aleksandr Gintsburg ma'lum qildi.

Yaratilayotgan preparatning texnologik platformasi rotaviruslarga qarshi gibridd vaksinaga asoslangan; unga parallel ravishda koronavirusning turli xil variantlariga qarshi dori ishlab chiqarilmoqda [12].



"Buning uchun texnologik platforma allaqachon yaratilgan, ammo klinik sinovlar hali boshlanmagan. Agar bu platforma bilan hamma narsa yaxshi bo'lsa, bu texnologiya ishlashda davom etadi, keyin biz yanada murakkab variantga o'tamiz — bir vaqtning o'zida bir vaksinada grippning gemagglutinin antigenlarini va shunga mos ravishda

koronavirus oqsillarini birlashtiramiz. Yangi preparatning klinik sinovlarining boshlanishi - kelasi yilning oxirida bo'lib o'tadi», - dedi ekspert.

Gintsburg vakcina olganlarda xotira hujayralari hosil bo'lishini va bu esa antitanalarning yuqori darajasini saqlashini ta'kidladi. "Ommaviy emlash darajasining oshishi, har olti oyda emas, balki undanam uzoq vaqda qayta emlash mumkinligiga olib keladi», - deb tushuntirdi olim.



Virusologlarning fikriga ko'ra, bitta vakcina yaratilishidan oldin gripp va koronavirusga qarshi vaksinalar bir-birini o'rnini bosmaydi, to'liq himoya qilish uchun ikkalasini ham olish talab etiladi. Ular orasida uch haftalik tanaffus talab qilinadi [13].



1. Reported Cases and Deaths by Country, Territory, or Conveyance // <https://www.worldometers.info/coronavirus/> (7.10.2021 y.)
2. Konferensi Pers Penerbitan EUA Vaksin Zifivax // <https://www.youtube.com/watch?v=OMdgVEysYFo> (7.10.2021 y.)
3. Индонезия разрешила экстренное применение вакцины ZF2001 // <https://vaccination.uz/tpost/Oz9sbjusz1-indoneziya-razreshila-ekstrennoe-primene> (7.10.2021 y.)
4. Индонезия разрешила экстренное применение узбекско-китайской вакцины ZF-UZ-VAC 2001 // <https://podrobno.uz/cat/obchestvo/indoneziya-razreshila-ekstrennoe-primeneniie-uzbeksko-kitayskoy-vaktsiny-zf-uz-vac-2001/> (7.10.2021 y.)
5. ССВ: 87 минг нафардан ортиқ бола Pfizer/BioNTech вакцинаси билан ихтиёрий равишда эмланди // <https://t.me/ssvmatbuotkotibi/6809> (7.10.2021 y.)
6. 5 октябрь ҳолатига кўра, юртимизда 87 710 нафар 12 ёшдан 18 ёшгача бўлган болалар Pfizer вакцинаси билан ихтиёрий равишда эмланди // <https://t.me/vaksinauzb/940> (7.10.2021 y.)
7. В Узбекистане более 87 тыс. детей вакцинировали препаратом Pfizer // <https://uznews.uz/ru/article/34803/> (7.10.2021 y.)
8. LIVE: U.N. and WHO chiefs hold conference on COVID-19 vaccine strategy // <https://www.youtube.com/watch?v=CkmhGxTnY-0> (7.10.2021 y.)
9. В ООН представили Стратегию глобальной вакцинации против COVID-19 // <https://news.un.org/ru/story/2021/10/1411422> (7.10.2021 y.)
10. Более 75% взрослого населения ЕС полностью вакцинированы от коронавируса // <https://russian.rt.com/world/news/914643-evrosoyuz-chislo-vakcinirovannyh-koronavirus> (7.10.2021 y.)
11. European Commission – Twitter // https://twitter.com/EU_Commission/status/1445629897276329984 (7.10.2021 y.)
12. Препарадостно: испытания единой вакцины от COVID и гриппа начнут в конце 2022-го // <https://iz.ru/1231794/elnar-bainazarov/preparadostno-ispytaniia-edinoi-vaktsiny-ot-covid-i-grippa-nachnut-v-kontce-2022-go> (7.10.2021 y.)
13. В 2022 году начнутся клинические испытания российской гибридной вакцины от коронавируса и гриппа // <https://vedtver.ru/news/society/v-2022-godu-nachnutsja-klinicheskie-ispytaniija-gibridnoj-vakciny-ot-koronavirusa-i-grippa/> (7.10.2021 y.)
14. Гинцбург рассказал о планах по созданию единой вакцины от гриппа и COVID-19 // <https://ria.ru/20211007/vaktsina-1753444579.html> (7.10.2021 y.)



O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2021